

**1950-1970-YILLAR ORALIG‘IDA FARG‘ONA VODIYSI
ARXELOGIYASI BO‘YICHA NASHR ETILGAN TADQIQOTLAR
TAHLILI
(КРАТКИЕ СООБЩЕНИЯ ИНСТИТУТА ИСТОРИИ МАТЕРИАЛЬНОЙ
КУЛЬТУРЫ MISOLIDA)**

Mahliyo Muqimxo‘ja qizi Turdixo‘jayeva
Katta o‘qituvchi,
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
E-mail: turdixujayevamakhliyo@gmail.com
ORCID-ID:0009-0008-5599-9647

Annotatsiya: “Краткие сообщения института истории материальной культуры”¹ nashri arxeologik tadqiqot natijalarini e’lon qilishda sovet davrida eng nufuzli nashrlardan hisoblangan. Yilda turli o‘zgarishlar bilan 3 ta, 4 ta xatto 6 tagacha soni e’lon qilinib borgan ushbu nashrda Farg‘ona vodiysi arxeologiyasiga bag‘ishlangan maqolalar kam bo‘lsa-da mavjud. Ushbu maqolada jurnalning 1950-1970-yillar oralig‘idagi sonlari sarhisob qilingan bo‘lib, chop etilgan tadqiqotlarning ilmiy tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar: КСИА, 1950-1970-yillar, Farg‘ona vodiysi, bronza davri, Y.A.Zadneprovskiy, N.G.Gorbunova, B.Z.Gamburg, V.I.Sprishevskiy, Chust aholi punkti, Sho‘rabashat, Isfara.

**АНАЛИЗ ОПУБЛИКОВАННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО
АРХЕОЛОГИИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В 1950–1970-Е ГОДЫ
(НА ПРИМЕРЕ ИСТОРИИ МАТЕРИАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ ИНСТИТУТА
КРАТКИХ СООБЩЕНИЙ)**

Махлиё Муқимходжа кизы Турдиходжаева
Старший преподаватель,
Доктор философии по историческим наукам (PhD)
Кафедра истории народов Центральной Азии
Ташкентский государственный университет востоковедения
Электронная почта: turdixujayevamakhliyo@gmail.com
ORCID-ID: 0009-0008-5599-9647

¹ Qarang jurnalning elektron saytlari: E-mail: ksia@iaran.ru; Интернет-сайт: <http://ksia.iaran.ru/>
www.sharqjurnali.uz

Аннотация: Издание «Краткие сообщения института истории материальной культуры» считалось одним из самых влиятельных изданий советской эпохи по публикации результатов археологических исследований. В этом издании, выходящем с различными изменениями 3, 4 и даже 6 раз в год, статей по археологии Ферганской долины немного. В статье обобщены выпуски журнала за период с 1950-х по 1970-е годы, а также дан научный анализ опубликованных исследований.

Ключевые слова: КСИА, 1950-1970-е годы, Ферганская долина, бронзовый век, Ю.А.Заднепровский, Н.Г.Горбунова, Б.З.Гамбург, Чустское поселение, В.И.Спришевский, Шорабашат, Исфара.

**ANALYSIS OF PUBLISHED RESEARCH ON THE ARCHAEOLOGY OF
THE FERGAN VALLEY IN THE 1950S–1970S
(BASED ON THE HISTORY OF THE MATERIAL CULTURE OF THE
INSTITUTE OF SHORT COMMUNICATIONS)**

Makhliyo Mukimkhodja kizi Turdikhokhaeva
Senior Lecturer,
Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)
Department of History of Central Asian Peoples
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: turdixujayevamakhliyo@gmail.com
ORCID ID: 0009-0008-5599-9647

Annotation: The publication “Kratkie soobshenia instituta istorii materialnoy kultury” was widely regarded as one of the most prominent in the Soviet era for publicizing archaeological research findings. This journal, which has been issued three, four, or even six times a year with various revisions, has just a few articles about Fergana Valley archaeology. This article reviews the magazine's issues from the 1950s through the 1970s and provides a scientific critique of the published research.

Keywords: KSIA, 1950-1970s, Fergana Valley, Bronze age, Y.A. Zadneprovsky, N.G.Gorbunova, B.Z.Hamburg, Chust village, V.I.Sprishevsky, Shorabashat, Isfara.

KIRISH

Davriy nashrlar doimiy tarzda ilm jamoatchiligini yangiliklardan boxabar etuvchi element hisoblanadi. Ayniqsa arxeologiyik tadqiqot natijalari doimiy e’lon qilinishi lozim. Sovet davrida ham huddi buguni kundagi kabi nashrlar masalasiga alohida e’tibor berilgan. Ayniqsa arxeologiya sohasida yetarlicha jurnallar faoliyat olib borgan. Rossiya Fanlar akademiyasining Arxeologiya instituti tomonidan

www.sharqjurnali.uz DOI: 10.5281/zenodo.17789714

ta’sis etilgan “Arxeologiya institutining qisqacha ma’ruzalari” (KSIA) seriyali nashri 1939-yildan beri nashr etiladi. To’liq nomi “Moddiy madaniyat tarixi institutining hisobotlari va dala tadqiqotlari bo’yicha qisqacha ma’ruzalar” (KSIIMK) bo’lib, 1960-yilda (81-son) Moddiy madaniyat tarixi instituti Arxeologiya instituti deb o’zgartirilgandan keyin 121-sondan boshlab qisqartirilgan. Ushbu sayt orqali jurnalning barcha sonlarini pdf variantda yuklab olish mumkin². Jurnal bo’yicha qiyosiy hamda miqdorit tahlil usullaridan foydalanish orqali tadqiq etilayotgan yillarda arxeologik bilimlar darajasi aniqlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu jurnal va undagi Farg’ona vodiysi arxeologiyasiga bag’ishlangan ishla tahlili bo’yicha mahsus tadqiqot amalga oshirilmagan. Biz quyida 1955-yildan 1970-yillar oralig’idagi 20 yillik sonlari ko’rib chiqildi. Afsuski, 1950-1955-yillarda umuman biz tadqiq etayotgan mintaqaga oid maqolalar uchramaydi. Jurnalning 1956-yil 61-sonida esa Yu.A.Zadneprovskiy qadimgi Farg’ona aholisining etnik tarkibi masalasini ham tadqiq etib, VI-VIII asrlardan boshlab Farg’onada turklarning paydo bo’lishi va mahalliy aholining turklashishi haqida tadqiqot olib borgan A.Yu.Yakubovskiyning fikriga qarshi borib, topilgan topilmalar orqali Farg’ona etnik tarixi masalasida o’z qarashlarini namoyon etadi. Xulosa sifatida esa qadimgi Farg’ona aholisi etnik jihatdan xilma-xil bo’lganligi, topilgan antropologik materiallar ularning etnik tarkibi, tili turlicha lekin o’xshash bo’lganini keltiradi. Muallif o’zi tuzgan jadval orqali ushbu tarkibni tahmin qilgan [2:C.48-56]. Keyingi maqola, M.E.Voronesning So’x qishlog’idagi ilonlarning tosh tasviriga bag’ishlangan maqola hisoblanib, So’x qishlog’idan 1893-1894-yillarda topilgan va O’zbekiston muzeyiga topshirilgan ilon tasvirli buyum tahliliga bag’ishlangan. Maktab darsliklaridan ma’lum bo’lgan ushbu artefakt O’rta Osiyo hunarmandchiligida tez-tez uchraydigan ilon tasvirli buyumlar qatorida turadi. Muallif maqolada Namozgohtepaning ilon tasvirli topilmasi xususida ham fikr bildirib, sopol buyumlardagi ilon tasviri ilonga sig’inishni yaqqon namoyon etishini yozadi. Qiyosiy tahlil sifatida Mesopatamiyadan topilgan vaza parchasidagi ilon figurasi keltiriladi. Ushbu topilmalar bir-biriga juda yaqinligi, xatto bezash texnikasi aynan o’xshash ekanligi isbotlanadi [3:C.48-56]. Ushbu sondagi keying maqola L.B.Bentovichning 1933-yildagi Mug’ tog’i qazishma materiallariga bag’ishlab yozgan hisoboti hisoblanadi. U yerdan topilgan O’rta Osiyo yodgorliklarining hech birida uchramaydigan to’qilgan bosh kiyim haqida fikrlar keltirilgan [4:C.65-70].

MUHOKAMA

63-sondagi maqolada viloyat o’lkashunoslik muzeyi tomonidan Farg’ona viloyatining janubiy va janubi-sharqiy hududlarida olib borilgan arxeologik qidiruv

² http://ksia.iran.ru/?page_id=79&lang=en
www.sharqjurnali.uz

ishlari natijasida 1954-yilda viloyatning arxeologik xaritasiga 84 dan ortiq yodgorlik kiritilganligi haqida ma’lumot olish mumkin [5:C.85-93]. B.Z.Gamburg va N.G.Gorbunovalarning 1956-yilgi maqolasi Farg‘ona vodiysining bronza davri topilmalariga bag‘ishlanib, unda vodiyning bronza davriga tegishli oval shaklidagi qabrlarning qazishmasi keltirilgan [5:C.85-93]. Qabrdan topilgan bronza buyumlar tahlil qilinib, dafn marozimida foydalanilgan topilmalar tahlil etilgan. Bronza taqinchoqlari hamda boshqa bronza buyumlarning tashqi ko‘rinishi ya’ni shakllari G‘arbiy Qozog‘iston va janubiy Sibirning Andronova qabrlariga o‘xshashligi o‘rganilgan. Sopol buyumlarning ifodasizligi va arxaik bezaklari esa Toshkent bronza davri topilmalariga qiyoslangan. Demak, ushbu topilmalar Farg‘ona vodiysining bronza davri madaniyati rivojining ikki asosiy shakli dehqonchilik va chorvachilik mavjudligini isbotlagan. Bundan xulosa qilish mumkinki, Farg‘ona vodiysi bronza davrida Tyan-Shan va Janubiy Sibir aholisining O‘rta Osiyoning g‘arbiy mintaqalari aholisi bilan faol etnik-madaniy aloqalari tutashgan markazlardan biri bo‘lgan. Keyingi 64-sondagi maqola qadimgi Farg‘onaning irrigatsiya tizimiga bag‘ishlangan. B.A.Latinin boshchiligidagi ushbu ekspeditsiya sug‘orish tarixi muammolarini o‘rganishni asosiy maqsad qilib olgan bo‘lishiga qaramay, qadimiy sug‘orish inshootlarini izlash va tekshirish bilan cheklanib qolmadi. Qadimgi qishloq xo‘jaligi aholi punktlarining joylashuvi, tabiati va mavjud bo‘lgan vaqtini belgilashga alohida e’tibor qaratdi, shuningdek, ularning materiallari sug‘oriladigan yerlar maydonlaridagi o‘zgarishlarni kuzatish, sug‘orish usullarining xususiyatlarini aniqlash masalalarini ham tadqiq etdi [6:C.15-26].

1954-yil V.I.Sprishevskiyning Chust aholi punktida olib borgan tadqiqotlari “Краткие сообщения института истории материальной культуры” nashrining 69-sonida e’lon qilingan [7:C.40-50]. Ushbu izlanishlar natijasida topilgan toshlardan qurilgan ibtidoiy tarzda o‘choqlar e’tibor tortadi. Topilmalarning asosiy qismi sopol buyumlardan iborat bo‘lib, ular qo‘lda yasalgan deya xulosalangan. Shuningdek, Chust kulollari yasagan 30 ga yaqin turli shakldagi idishlar topilib, bularning qizig‘i topilmada qolgan qo‘l izlari ya’ni barmoqlarning kichikligi V.I.Sprishevskiyda ushbu buyumlarni yasagan kulolning ayol kishi bo‘lganligi haqida fikr uyg‘otadi. 1954-yildagi qazishmalar natijasida qo‘lga kiritilgan to‘quv dastgohi, zargarlik buyumlari va boshqa bir qator topilmalar arxeologga Chust manzilgohining davri sanasini aniqlash imkonini berib, taxminan mil. avv. 2-migyillik bilan sanalashga imkon beradi. Keyingi maqola Yu.A.Zadneprovskiyning Dalvarzin tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Chust manzilgohi materiallari Andijonning Dalvarzin manzilgohi topilmalari bilan solishtiriladi [8:C.50-58].

G.Z.Gamburg va G.N.Gorbunovanning Oqtom qabristoniga bag‘ishlangan keying maqolada, katakomba qabrlar topilmalari tavsifi keltirilgan. Qabrlarga dafn etilganlar soni va tepaliklar jadval ko‘rinishida ifodalangan. Antropologik ma’lumotlar oilaviy dafn marosimi haqida ma’lumotlarni beradi. Bo‘yalgan sopol buyumlar tekshirilganda unin Chust va Dalvarzinikidan farq qilishini kuzatish

mumkin. Qabrlardan topilgan mayda qoramol suyaklari Oqtom aholisining chorvachilik bilan xususan, qo‘ychilik shug‘ullanganini anglatadi [9:C.72-78].

V.V.Ginzburgning Vodil va Oqtom qabrlari materiallarining antropologik jihatlariga bag‘ishlangan tadqiqotida Janubiy Farg‘onaning so‘nggi bronza davri antropologik materiallari tahlil etilgan[10:C.91-94]. Topilgan suyaklarga qarab tahminan jins va yosh masalalari aniqlanganligi xususida ma’lumotlar uchraydi. O‘rganilishlar natijasida sak-usun davri Farg‘ona vodiysining janubiy qismida yashovchi aholisi asosan, bosh suyak shakli braxikifal ya’ni yumaloq, yuzi tor, burni sezilarli darajada chiqqan shaklda bo‘lganligi aniqlangan.

1958-yil 71-sonda umumiy 3 ta maqola bo‘lib, birinchisi V.I.Sprishevskiyning Chustga bag‘ishlangan tadqiqoti hisoblanadi [11:C.86-99].1954-yil qazishmalarining natijalarini e’lon qilar ekan arxeolog, loy-qumli tuproqdagi madaniy qatlam ostida 33ta chuqur tozalanib tadqiq etilganini ta’kidlaydi. Ushbu topilmalarning eng ko‘pi singan idish-tovoqlar bo‘lib, ular asosa oddiy qo‘lda qoliplash yo‘li bilan yasalganligi aniqlangan. Ular turli shakl va o‘lchamlarda yasalgan. Topilgan material Chust aholisining to‘quvchilikni yaxshi bilganligini isbotlaydi. Suyakdan yasalgan mahsulotlar ham ko‘p topilgan. 1955-yil ilk bor dafn etilgan ayol qabrini arxeologlar topishadi va V.Zezenkova tomonidan topilmaning boshi antropologik jihatdan o‘rganilgan. Ikkinchisi Yu.A.Zadneprovskiyning “Sho‘rabashat shahri” deb nomlangan tadqiqoti hisoblanadi [12:C.99-101]. Bilamizki, ushbu manzilgoh butun Farg‘ona vodiysida hozirda ma’lum bo‘lgan yodgorliklar ichida eng kattasi hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqotda O‘sh muzeyida saqlanuvchi bronza pichoq topilmasa haqida so‘z boradi. Antik davrga tegishli Eylaton kulolchilik buyumlariga o‘xshash kulolchilik materiallari topilgan. Kulolchilik idish-tovoqlari topilib, barchasi qo‘lda yasalganligi aniqlanadi. Asosiy farqlovchi xususiyat tutqichlari ko‘p bo‘lgan buyumlardir. Yu.A.Zadneprovskiyning bu yerda olib borgan izlanishlari, Dovon podshohligi mavjud bo‘lgan davrda Sho‘rabashat Qadimgi Farg‘onaning yirik shahar markazlaridan biri bo‘lganligini isbotlagan ko‘rinadi.

76-sonda ham umumiy 3 ta maqola bo‘lib, uning birinchisi B.A.Latinin va T.G.Gorbunovalarning Isfara qo‘rg‘oni misolida qadimgi Farg‘ona vodiysining qishloq xo‘jalik sistemasini ochib berishga qaratilgan [13:C.17-28]. Mualliflar xitoy manbalari misollarini keltirgan holda, Farg‘ona vodiysi juda qadimdan sug‘orma dehqonchilik hududi sifatida arxeologik yodgorliklarga boyligi masalasini ko‘taradilar. 1934-yil Farg‘ona ekspeditsiyasining Isfara qabristonidagi qazish natijalari maqolada tahlil etiladi. Qabrdan topilgan materiallar o‘troq dehqonchilik madaniyatiga xosligi isbotlanib, Isfara qo‘rgo‘onlarining ba’zi sopol topilmalari Chirchiq–Angren vohasi bilan a’loqador ekanligi arxeologlarni e’tiborini tortgan. Shuningdek, topilmalar orasida sug‘orma dehqonchilik bilan bir qatorda rivojlangan chorvachilik mavjud bo‘lganligini isbotlovchilari ham topiladi. Aholining uy hayvonlarini boqish uchun xitoy manbalarida keltirilgan beda ekinlari yetishtirganliklari ochiq ko‘rinadi. Ushbu tadqiqot Markaziy Osiyoning

asrlar davomidagi tarixida dehqonlar va chorvadorlar kurashi masalasi aslida ikki xo‘jalikning bir-birini uyg‘unlashtiruvchi, bir-birini to‘ldiruvchi tuzilma bo‘lganligi haqidagi g‘oyani ilgari surgan desak yanglishmaymiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

V.I.Kozenkovaning 1956-yildagi Andijon viloyatida olib borilgan arxeologik ishlarning natijasiga bag‘ishlangan maqolasida [14:C.56-63] keltirilishicha, 1956-yilda Andijon viloyat o‘lkashunoslik muzeyida ilk bor qadimgi yodgorliklarni o‘rganish bo‘yicha mustaqil ishlar boshlangan. Va bu ishlarning asosiy oldiga qo‘ygan vazifasi vodiyni shimoliy-sharqiy hududlari arxeologik xaritasini tuzish, barcha davrlarda aholining yashash manzilgohlarini aniqlash, yodgorliklarni topish, xaritalash, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash kabilardan iborat edi. Ushbu yilda 8 ta tuman ko‘zdan kechirilib, 40 dan ortiq yodgorlik va 7 ta qabriston aniqlangan. Xronologik chegara esa bronza davridan to o‘rta asrlargacha yetib belgilandi. Ushbu qidiruvlardan arxeologlar o‘rta asrlarga oid eng kam yodgorliklar Andijon viloyatida saqlanib qolganligini xulosa qilishgan. Keyingi maqola Yu.A.Zadneprovskiyning 1956-yildagi Janubiy Qirg‘izistonda olib borilgan arxeologik qidiruv natijalariga bag‘ishlangan [15:C.63-73]. 1960-yilning 78-sonida biz tadqiq etayotgan mintaqaga oid maqola soni atigi 1 tani tashkil qilib, u Janubiy Qirg‘iziston Respublikasining 1957-yildagi arxeologik tadqiqotlari haqida muhokama qiladi [16:C.43-53]. Qirg‘iziston arxeologik ekspeditsiyasining Janubiy Qirg‘iziston otryadi ushbu hududning tarixiy va arxeologik xaritasini tuzish uchun materiallar yig‘ish maqsadida qazish ishlarini olib boradi. Sho‘rabashat manzilgohidan topilgan bir qator arxeologik artefaktlar tahlil etilib, don saqlash an‘anasi sifatida foydalanilgan bir qator o‘ralar muhokama qilinadi. Va xulosa sifatida ushbu chuqurlar Shimoliy Qora dengiz mintaqasi bilan o‘xshashligi asoslanadi. Shuningdek, maqolada Qoramo‘ynoq qabristoni materiallari ham tasniflangan. Yog‘och tobutlar topilganligi haqida fikrlar keltirilgan. Ushbu qabristonning Isfara qabristoniga o‘xshashligi asoslangan. 80-sonda N.G. Gorbunovning [17:C.93-94] Oqtom qabridan topilgan shoxdan yasalan plastinka tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy maqola hamda V.D.Jukovning [18:C.80-85] Quvada 1956-yili olib borilgan qazishma topilmalariga bag‘ishlangan maqolasi e’tiborimizni tortdi. Shuningdek, B.A.Latinining Eylaton rangli sopolini ifodalagan maqolasi o‘rin olgan [19:C.90-93].

86-son 1961-yil nashrdan 2 ta maqola o‘rin olgan [20:C.36-43]. 1959-yil Dalvarzindagi qazishmalar natijasini e’lon qilgan Yu.A. Zadneprovskiyning maqolasida ushbu hududning 3 ta qismidagi qazishmalar tahlili keltirilgan. Markaziy qazishmada katta singan qozon parchalari, don qirg‘ichlar, shuningdek, 18-20-yosh ayol bosh suyagi va boshqa materillar topilgan. Ammo maqolada ushbu topilmalar tasnifiy bo‘lib, to‘liq tahlillar kam uchraydi. Biroq, topilgan sopol buyumlarning statistik tahlili jadval shaklida aniq keltirilgan. E’tiborli jihati ushbu qazishmada ilgari Dalvarzindan boshqa biror joyda topilmagan noma’lum qora-kulrang sayqallangan kulolchilik buyumlari topilganidadir. Umuman olganda,

ushbu hududdan topilgan loy, bronza, tosh va suyak buyumlar doirasi kengaydi. Ushbu artefaktlar yordamida arxeologlar Farg‘ona vodiysi aholisining xo‘jalik, ishlab chiqarishning ayrim jihatlarini ifodalash imkoniga ega bo‘lgandi. A.P.Okladnikov hamda N.I.Leonovlarning Farg‘ona vodiysining ilk tosh davri topilmalariga bag‘ishlangan maqolada 1951-yilda A.N.Bernshtamning “Farg‘onada inson hayotining asl kelib chiqishi tez orada kafsh etilishi” haqidagi bashoratlari eslatilib, o‘lkashunos P.T.Konoplyaning Farg‘ona hududidan tosh davrining ilk izlarining topilishidagi o‘rni haqida fikr yuritilgan [21; C.43-55]. Farg‘ona vodiysining gidrogeologiyasi haqida bildirilgan fikrlar mualliflarni e’tiboriga tushgan. Tabiatshunos A.P.Fedchenkonning vodiya bug‘doy sug‘orilmaydigan lalmi yerda o‘sishi, yog‘ingarchilik juda ko‘p bo‘lishi haqida yozgan fikrlariga urg‘u berilgan. Shuningdek, janubiy Farg‘onaning mutaxassisi V.N.Veberning “agar doimiy yomg‘ir yog‘maganda, biz o‘rik va mazali taomlar bilan mehmon bo‘lar edik” deb yozgan ma’lumotlari berilishi e’tiborli.

122-sondagi nazariy-metodologik mavzuga bag‘ishlangan umumiy O‘rta Osiyo masshtabidagi maqola muammo doirasida muhim hisoblanadi. Ushbu sonda 1968-yil mart oyida bo‘lib o‘tgan O‘rta Osiyo tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan konferensiya materiallari o‘rin olgan bo‘lib, unda O‘rta Osiyo arxeologiyasining asosiy muammolari, ibtidoiy arxeologiyani o‘rganishning asosiy vazifalarini o‘zida aks ettiruvchi maqolalar o‘rin olgan. Birinchi maqola G.A.Brikinaga tegishli bo‘lib [25; C.92-96], unda VI-XII asrlar Farg‘ona vodiysining janubiy-g‘arbiy qismining qishloq xo‘jalik masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, X asrda yashagan arab geografi Ibn Xavqalning Farg‘ona haqidagi quyidagi fikrlari keltirilgan, ya’ni “Movarounnahrda Farg‘onadagi qishloqlardan kattaroq qishloq yo‘q; ba’zan aholi gavjumligi, qolaversa, chorva va yaylovlarning ko‘pligi tufayli qishloqlar chegarasi bir kunlik yurishgacha yetib boradi”. Shuningdek muallif, aholi zichligi, ekin maydonlari va yaylovlar uchun bo‘sh yerlarning yo‘qligi aholining Farg‘ona vodiysidan tog‘li, siyrak aholi punktlariga chiqib ketishiga sabab bo‘lganligini asoslaydi. Mintaqaning aholi punktlari topografiyasidagi o‘ziga xosliklarni ham tahlil etadi. Keyingi maqola, N.G.Gorbunovanning qizil angobli sopollarga bag‘ishlangan maqolasida [26; C.81-91] qizil angobli kulolchilik buyumlarini o‘rganish Farg‘ona madaniyatida mahalliy variantlar mavjudligi masalasini ham ko‘tarish imkonini berishini xulosalagan. Olima kulolchilik charxida yasalgan va qizil angob bilan qoplangan sopol idishlar Farg‘ona va aholi punktlarida ko‘p uchrashi hamda qabrlardan topilgan sopol buyumlarning 70 foizdan ko‘prog‘ini tashkil qilishini yozadi. Jurnalda nazariyaga bag‘ishlangan maqolalar ham yo‘q emas. Agar arxeologiya muammolariga nazar solsak, tabiiy-texnika fanlari usullari yordamida yechish imkoni bo‘lgan sovet davrida aynan mana shunday muammolarni 1970-yillarda Y.A.Sher 4 ta guruhga ajratgan:

1. Qadimgi madaniyatlarning xronologiyasi
2. Qadimgi davrlardagi etnik-madaniy va iqtisodiy aloqalar
3. Qadimgi texnika tarixi

4. Qadimgi davrlarda inson va tabiiy muhit [27:C.106-110].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, to‘plamning 1950-1955-yillardagi sonida biz tadqiq etayotgan mintaqaga tegishli biron bir maqola uchramadi. Bu jarayon aynan XX asrning o‘rtalarida boshlangan arxeologik ekspeditsiyalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Negaki, ko‘p hollarda ekspeditsiyalar uyushtirilganidan bir necha yil o‘tib, qazishmalar yakunlangach uning hisobotlari e‘lon qilina boshlaydi. Keyingi 5 yillikda esa ya‘ni 1956-1960-yillardagi sonlarda maqolalar miqdori sezilarli darajada ortganini kuzatish mumkin. Keyingi yillarda esa yana shu hol takrorlangan. 20 yillik sonlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, vodiylar arxeologiyasiga tegishli maqolalar 1950-1970-yillar oralig‘ida umumiy miqdorda 26 ta ni tashkil etdi. Maqolalar orasida nazariy-metdologik masalalarni ifodalovchilari kam bo‘lsa-da, bor. Asosiy maqolalar Yu.A.Zadneprovskiy, N.G.Gorbunova, B.A.Latininlar tomonidan yozilganligi ko‘rinadi. Eng ko‘p Farg‘ona vodiysi arxeologiyasini qamrab olgan son u 1956-yil soni ekanligini aytish mumkin. Tarixshunoslik xulosasi sifatida aytish mumkinki, XX asrning 60-70-yillarida Farg‘ona vodiysi arxeologiyasiga bag‘ishlangan tadqiqot natijalari yetarli darajada e‘lon qilinib turilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jurnalning elektron saytlari: E-mail: ksia@iaran.ru; Интернет-сайт: <http://ksia.iaran.ru/>
2. Заднепровский Ю.А. Об этническом составе населения древней Ферганы // Краткие сообщения института истории материальной культуры 1956 Вып. 62–С.48-56
3. Воронец М.Э. Каменное изображение змей из кишлака Сох Ферганской области // Краткие сообщения института истории материальной культуры 1956 Вып. 62 –С.48-56
4. Бентович И.Б. Плетеные изделия из раскопок на горе Муг // Краткие сообщения института истории материальной культуры 1956 Вып. 62 – С.65-70
5. Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Могильник эпохи бронзы в Ферганской долине (Предварительное сообщение) // Краткие сообщения института истории материальной культуры 1956 Вып. 63–С.85-93
6. Латынин Б.А. Вопросы истории ирригации древней Ферганы // Краткие сообщения института истории материальной культуры 1956 Вып. 64–С. 15-26
7. Спришевский В.И. Чустское поселение эпохи бронзы (из раскопок 1954 г.) // Краткие сообщения института истории материальной культуры 1957 Вып. 69–С.40-50

8. Заднепровский Ю.А. Дальверзинское селище // Краткие сообщения института истории материальной культуры 1957 Вып. 69–С.50-58
9. Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Ак-Тамский Могильник // Краткие сообщения института истории материальной культуры 1957 Вып. 69–С.72-78
10. Гинзбург В.В. Антропологические материалы из Вуадильского и Ак-Тамского могильников // Краткие сообщения института истории материальной культуры 1957 Вып. 69–С.91-94
11. Спришевский В.И. Чустское Поселение Эпохи Бронзы (Раскопки 1955 Г.) // Краткие сообщения института истории материальной культуры 1958 Вып. 71– С.86-99
12. Козенкова В.И. Археологические работы в Андижанской области в 1956 г // Краткие сообщения института истории материальной культуры 1959 Вып. 76–С.56-63
13. Заднепровский Ю.А. Археологические работы в южной Киргизии в 1956 г. // Краткие сообщения института истории материальной культуры 1959 Вып. 76–С.63-73
14. Заднепровский Ю.А. Археологические работы в южной Киргизии в 1957 г. // Краткие сообщения института истории материальной культуры 1960 Вып. 78–С.43-53
15. Горбунова Н.Г. Роговая пластинка из Ак-Тамского могильника // Краткие сообщения института истории материальной культуры (KSIA)1960 Вып. 80–С.93-94
16. Ю.А.Заднепровский Неолит Центральной Ферганы // Краткие сообщения института истории материальной культуры 1969 Вып. 108–С.39-45
17. Шер Я.А. Археология и естественные науки // Краткие сообщения института истории материальной культуры 1970 Вып. 122–С.106-110.
18. Turdixoj‘jayeve, M. M. (2024). Markaziy Osiyoning siyosiy hayotida o‘chmas iz qoldirgan uch buyuk ayol. *XXI Asr: Fan va ta’lim masalalari (XXI Bек: Voprosy nauki i obrazovaniya)*, 2(2), 343-354.
19. Doniyorov, A., & Turdixoj‘jayeve, M. (2024). Chust tarixi va o‘lkashunoslik muzeyi eksponatlarining etnoturizm rivojidadagi o‘rni. *Science and innovation*, 3 (Special Issue 46), 160-164.
20. Turdixoj‘jayeve, M. M. (2024). O‘zbekiston va Hindiston madaniy aloqalarining tarixiy ildizi (Arxeologik tadqiqotlar misolida). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(5), 142-146.

Ilava.

№	Nashr etilgan yil	Jurnal soni	Maqola miqdori	Muallif nomi	Maqola mavzusi
1.	1950	31-35	-	-	-
2.	1951	36-41	-	-	-
3.	1952	42-48	-	-	-
4.	1953	49-52	-	-	-
5.	1954	53-56	-	-	-
6.	1955	57-60	-	-	-

7.	1956	61-66	5	Ю. А. Заднепровский , М.Э.Воронец. И.Б.Бентович. Б.З.Гамбург, Н.Г.Горбунова., Б.А.Латынин	1. Об этническом составе населения древней Ферганы – С.39-45 2. Каменное изображение змей из кишлака Сох Ферганской области–С.48-56 3. Плетеные изделия из раскопок на горе Муг –С.65-70 4.Моги́льник эпохи бронзы в Ферганской долине (Предварительное сообщение) С.85-93 5.Вопросы истории ирригации древней Ферганы С. 15-26
8.	1957	67-70	4	В. И. Спришевский , Ю. А. Заднепровский , Б.З Гамбург, Н.Г.Горбунова, В.В. Гинзбург	1. Чустское поселение эпохи бронзы (из раскопок 1954 г.) С.40-50 2. Дальверзинское селище.С.50-58 3. Ак-Тамский Моги́льник С.72-78. 4. Антропологические материалы из Вуадильского и Ак-Тамского моги́льников–С.91-94
9.	1958	71-72	2	Ю.А.Заднепровский В.И.Спришевский	1.Городище Шурабашат С. 99-109 2.Чустское Поселение Эпохи Бронзы (Раскопки 1955 Г.) С.86-99
10.	1959	73-77	3	Б.А.Латынин, Т.Г.Оболдуева, В.И.Козенкова. Ю. А. Заднепровский ,	1.Исфаринские курганы (К вопросу о системе хозяйства древней Ферганы) С.17-28 2. Археологические работы в Андижанской области в 1956 г С.56-63 3. Археологические работы в южной Киргизии в 1956 г. С.63-73
11.	1960	78-81	5	Ю. А. Заднепровский , В. Д. Жуков. Б.А.Литвинский Б. А. Латынин Г.Горбунова	1. Археологические работы в южной Киргизии в 1957 г. С.43-53 2. Даханинский моги́льник эпохи бронзы в Западной Фергане.–С.47-53 3..Обследование городища Старая Кува в 1956 г. –С.80-85 4.Эйлатанская расписная чаша. –С.90-93 5.Роговая пластинка из Ак-Тамского моги́льника –С.93-95
12.	1961	82-86	2	Ю.А.Заднепровский А.П.Окладников , Н.И.Леонов	1.Дальверзинское поселение (раскопки 1959 года)–С.36-43 2.Первые находки каменного века в Фергане –С.43-55
13.	1962	87-92	1	Т.Г.Оболдуева	1. Раскопки 1960 года на городище Эйлатан С.38-48
14.	1963	93-96	-	-	-
15.	1964	97-99	-	-	-
16.	1965	100-105	-	-	-
17.	1966	106-108	1	Ю. А. Заднепровский	1. Неолит Центральной Ферганы С.39-45
18.	1967	109-112	-	-	-
19.	1968	113-114	-	-	-
20.	1969	115-120	1	Ю. А. Заднепровский	1.Средневековая расписная керамика Ферганы –С.39-46
21.	1970	121-124	3	Г.А.Брыкина. Г.Горбунова Я.А.Шер	1. К истории земледельческого населения юго-западных предгорий Ферганы в VI-XII вв.–С.92-96 2. О датировке Ферганской керамики с красным ангобом– С.81-91 3. .Археология и естественные науки–С.106-110
	20	93	26		